

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA IQTISODIY, IJTIMOIIY, MADANIY VA EKOLOGIK HUQUQLAR GAROVI SIFATIDA

Jo'rayev Qobiljon Olimjonovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangilangan O'zbekiston Konstitutsiyasining iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarni kafolatlashdagi normativ-huquqiy asoslari hamda ularning milliy taraqqiyot jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Konstitutsiyaga kiritilgan yangi normalar inson huquqlarining ustuvorligi, fuqarolarning farovon hayotini ta'minlash, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilganligi nuqtai nazaridan baholanadi. Shuningdek, maqolada konstitutsion islohotlar xalqaro inson huquqlari standartlari bilan taqqoslanadi hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiya O'zbekistonda ijtimoiy davlat, kuchli fuqaro jamiyati va barqaror iqtisodiy boshqaruvni shakllantirishdagi asosiy huquqiy kafolat sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijalari yangilangan Konstitutsiyaning mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasida iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik, madaniy merosni asrash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

Аннотация: В данной статье научно анализируются нормативно-правовые основы обновлённой Конституции Республики Узбекистан в обеспечении экономических, социальных, культурных и экологических прав, а также их значение в процессе национального развития. В исследовании оценивается направленность новых конституционных норм на приоритет прав человека, обеспечение благополучной жизни граждан, проведение справедливой социальной политики, развитие рыночной экономики и укрепление экологической устойчивости. Кроме того, в статье конституционные реформы сопоставляются с международными стандартами в области прав человека, а обновлённая редакция Конституции рассматривается как основная правовая гарантия формирования в Узбекистане социального государства, сильного гражданского общества и эффективного экономического управления. Результаты исследования показывают, что роль обновлённой Конституции в обеспечении экономической стабильности, социальной справедливости, сохранении культурного наследия и экологической безопасности в долгосрочной стратегии развития страны неуклонно возрастает.

Annotasion: This article provides a scholarly analysis of the normative and legal foundations of the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan in guaranteeing

economic, social, cultural, and environmental rights, as well as their significance in the process of national development. The study evaluates the newly introduced constitutional provisions in terms of their orientation toward ensuring the primacy of human rights, improving the well-being of citizens, implementing fair social policies, developing a market economy, and strengthening environmental sustainability. In addition, the article compares the constitutional reforms with international human rights standards and interprets the new version of the Constitution as a key legal guarantee for the formation of a social state, a strong civil society, and stable economic governance in Uzbekistan. The findings of the research demonstrate that the role of the updated Constitution in ensuring economic stability, social equity, the preservation of cultural heritage, and environmental security within the country's long-term development strategy is steadily increasing.

Kalit soʻzlar: iqtisodiy huquq, ijtimoiy huquq, madaniy huquq, mulkchilik, obyektiv mulk huquqi, subyektiv mulk huquqi, mulkni egallash huquqi, mulkdan foydalanish huquqi, mulkni tasarruf etish huquqi, ekologik huquq.

Ключевые слова: экономическое право, социальное право, культурное право, собственность, объективное право собственности, субъективное право собственности, право владения имуществом, право пользования имуществом, право распоряжения имуществом, экологическое право.

Keywords: economic law, social law, cultural law, property ownership, objective property right, subjective property right, right to possess property, right to use property, right to dispose of property, environmental law.

KIRISH

Yangilangan Konstitutsiyamizda inson ilmiy salohiyatli, oʻz aqliy mehnat mahsulini himoyalay olish huquqiga ham ega boʻldi. Qisqa qilib shuni ayta olamiz-ki, yangilangan konstitutsiyamiz muhtaram prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev aytganlaridek "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy davlat qurishning asosiy kalit boʻlib xizmat qiladi desak mubolagʻa qilmagan boʻlamiz.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga alohida "Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" bobi kiritilgan. Mazkur IX bobda inson va fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlarining yuridik tabiati, mulk huquqi, mehnat huquqi, ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalalanish huquqi, sogʻliqni saqlash huquqi, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, qulay atrof-muhitga, uning holati toʻgʻrisidagi ishonchli axborotga ega boʻlish huquqi, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi mustahkamlab qoʻyilgan.

Mazkur konstitutsiyaviy huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda o'z ifodasini topgan.

Jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-15 moddalarida quyidagi huquqlar belgilangan: mehnat qilish huquqi (6 modda), adolatli va qulay mehnat sharoitidan foydalanish huquqi (7-modda), kasaba uyushmalarini tuzish va unga kirish huquqi (8-modda), ijtimoiy ta'minot olish huquqi (9-modda), yetarli hayotiy shart sharoitga ega bo'lish huquqi (11-modda), jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori darajada erishish va ma'lumot olish huquqi (12,13-moddalar), madaniy hayotda ishtirok etish huquqi (15-modda) va boshqalar.

Ushbu normalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyada belgilangan iqtisodiy huquqlar jamiyat hayotining moddiy asoslarini va munosib turmush tarzini yaratish hamda har bir shaxsning erkin rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

Iqtisodiy huquqlar- iqtisodiy sohadagi inson faoliyatini yuridik jihatdan belgilovchi huquqlar majmuidir. Konstitutsiyada belgilangan mulk huquqi, bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi kafolati huquqi, meros huquqi (41-modda), har bir shaxsning mehnat qilish sohasidagi huquq va erkinliklari (42-44-moddalar) **iqtisodiy huquqlar** hisoblanadi.

Ijtimoiy huquqlar deyilganda insonlarning davlatdan muayyan yordam olishlariga imkon beruvchi ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam olish, munosib turmush tarzini kechirishga imkon beruvchi huquqlarning yig'indisi tushuniladi.

Konstitutsiyada belgilangan ishsizlikdan himoyalash huquqi (43-modda), kasbiy va qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqi (43-modda), dam olish huquqi (45-modda), ijtimoiy ta'minot olish huquqi (46-modda), uy-joy bilan ta'minlanish huquqi (47-modda), sog'liqni saqlash va malakali tibbiy yordam olish huquqi (48-modda), ta'lim olish huquqi (50-modda), o'qituvchining ijtimoiy himoyada bo'lish huquqi (52-modda) **ijtimoiy huquqlar** hisoblanadi.

Shu o'rinda aytish joizki, ta'lim olish huquqini ijtimoiy huquqlar tizimiga yoki madaniy huquqlar tizimiga kiritish bo'yicha olimlar o'rtasida ilmiy bahs mavjud. Manfred Novak "Oliy ta'lim olish huquqi odatda madaniy huquq hisoblansa ham, u insonning boshqa huquqlari bilan bo'g'liq hamda zamonaviy inson huquqlari qonunchiligida oliy ta'lim olish huquqi ta'lim erkinligi va akademik erkinlikni o'z ichiga olgan bilimlar majmuidir", - deb ta'kidlaydi. A.Bezuglov va L.Belomastnix, O.Kufatin ta'lim olishni ijtimoiy huquq sifatida e'tirof etadi. Sh.Asadov esa ta'lim olish huquqini ham madaniy, ham ijtimoiy huquqlar qatoriga kiritadi. Biroq oliy ta'lim olish huquqini amalga oshirishdan asosiy maqsad shaxsga qaysidir soha yoki ixtisosliklar bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlar berish, uning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish orqali tegishli soha bo'yicha mutaxassis tayyorlash hisoblanadi. Bu esa

shaxsning ijtimoiylashuviga, ya'ni jamiyatning muhim bir a'zosi sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Madaniy huquqlar- Konstitutsiya yoki qonun bilan kafolatlangan, madaniy va ilmiy sohada insonning rivojlanishini ta'minlaydigan inson huquqlari va erkinliklarining alohida majmui.

Konstitutsiya intellektual mulk, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi (53-modda) **madaniy huquqlar** sifatida keltirilgan.

Ekologik huquqlar- inson va fuqaroning fundamental huquqlaridan biri bo'lib, uning normal yashash sharoitlarini saqlash bilan hayotiy faoliyati asoslariga ta'sir qiladi. Bu huquq insonning yashash va uning salomatligini muhofaza qilish huquqlari bilan chambarchas bo'g'liqdir.

Konstitutsiyada belgilangan ekologik huquqlar qatoriga "Har kimning qulay atrof-muhitga ega bo'lish, uning holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega" ekanligi (49-modda) kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida mulk huquqining kafolati belgilangan bo'lib, ushbu normaga ko'ra har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli.

Mulkchilik munosabatlari moddiy ne'matlar (tovarlar) ishlab chiqarish va moddiy boyliklarni taqsimlash xususidagi iqtisodiy munosabatlardir.

Mulkchilik birinchidan, insonning boyligi bo'lmish ashyo, buyum yoki boshqa narsaga nisbatan munosabat, ikkinchidan boylik, ne'mat xususida kishilar o'rtasida vujudga kelgan munosabatdir. Shaxslar tomonidan tabiat boyliklarini, ashyolarni o'zlashtirishda yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan va mustahkamlaydigan huquqiy me'yorlar tizimi yuridik ma'nodagi "mulk" tushunchasida mujassamlashgan. Shu ma'noda u mulk huquqi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga ko'ra, mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xoxishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek, o'zining mulk huquqi, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir.

Mulk huquqining mazmuni. Mulk huquqi ikkiga bo'linadi.

Obyektiv mulk huquqi deganda tabiat ashyolarini ijtimoiy o'zlashtirishning mavjud zaxiralarini, usullarini belgilash, tartibga solish va uni mustahkamlash uchun xalq manfaatlarini ifodalovchi huquq me'yorlari yig'indisi nazarda tutiladi. Mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar obyektiv huquq me'yorlari hisoblanadi.

Subyektiv mulk huquqi deb ayrim shaxslar, ya'ni huquq subyektlarining (davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning) obyektiv huquq me'yorlari asosida kelib chiquvchi mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlariga aytiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi mulkchilik to‘g‘risida” gi Qonunga ko‘ra, mulkdor o‘ziga tegishli mol-mulkka o‘z ixtiyoriga ko‘ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Shunga asosan mulkdor o‘z mulkiy huquqlarini ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshiradi.

Mulkdorning o‘z xohishi deganda uning o‘z erki, irodasi bilan o‘zining, shuningdek, boshqalarning yoki ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlab bironing tazyiqisiz, zo‘rlashisiz harakat qilishi nazarda tutiladi. Agar mulkdorga nisbatan bunday holatda zo‘rlilik, tazyiq ko‘rsatilgan bo‘lsa, qonun uning xohish irodasini erkin amalga oshirishini kafolatlaydi va muhofaza qiladi.

Mulkni egallash huquqi deb mulkni qo‘lda yoki unga nisbatan o‘z huquqlarini amalga oshirishga imkon beruvchi biron joyda saqlab turishga aytiladi. Mulkni qonunga muvofiq ravishda o‘z qo‘lida yoki o‘z erki -iridasi ta’siri ostida saqlab turgan shaxs mulkni egallash huquqiga ega.

Mulkdan foydalanish huquqi deb mulkning foydali xususiyatlarini olishga, mulkdan iqtisodiy ma’noda foydalanishga aytiladi. Mulkdan qonunga muvofiq ravishda foydalanuvchi shaxs shu mulkdan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi.

Mulk egasi tasarruf etish huquqiga binoan mulk yuzasidan xilma-xil bitimlar, shartnomalar, chunonchi, ashyoni sotish, hadya qilish, ijaraga berish to‘g‘risidagi shartnomalarni tuza oladi.

Munosib mehnat qilish huquqi va fuqarolarning bandligini ta’minlash. Dam olish huquqi. Konstitutsiyaning 42-moddasida shaxsning mehnat qilish sohasidagi huquq va erkinliklari va uni amalga oshirishga oid quyidagi normalar belgilandi:

birinchidan, “munosib mehnat” degan adolatli ish haqi to‘lanadigan ish joylari, yetarli mehnat sharoitlari va ishonchli ijtimoiy himoya ko‘zda tutiladi. Shuningdek har kim xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan, qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

Xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlari deganda xavfsizlik standartlari, sanitariya normalari va qoidalari, gigiyena normalari talablari asosida ish joylarini tashkil etish tushuniladi.

Ushbu masala 2006-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilingan Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko‘maklashish asoslari to‘g‘risidagi konvensiyada o‘z aksini topgan;

Ikkinchidan, inson mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish huquqiga ega, degan norma nazarda tutilgan. Shu maqsadda normative-huquqiy hujjatlar bilan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori belgilanadi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, Italiya, Chexiya, Ruminiya, Xitoy, Turkiya kabi davlatlar Konstitutsiyalarida ham mehnat qilish huquqi belgilangan.

Fuqarolarning mehnat huquqlarini amalga oshirish, ularni ish bilan ta'minlash va ishsizlikdan himoyalash, munosib mehnat uchun munosib ish haqi bilan ta'minlash ijtimoiy davlatning asosiy shartlaridan biridir.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasiga ko'ra, "Mehnat turini har bir odam erkin holda tanlaydi. Shu Pakt ishtirokchisi bo'lgan davlatlar esa fuqarolarning mazkur huquq bilan ta'minlash uchun zarur choralar ko'radi".

Ekologik huquqlar- yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 49-moddasida ilk bora insonlarning ekologik huquqlari belgilab qo'yildi, ushbu normaga ko'ra "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi".

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, bugungi, har tamonlama rivojlanib borayotgan dunyoda, yetakchi va ilg'or mamlakatlar qatoridan o'z o'rniga ega bo'lish uchun zamon ruhi bilan hamnafas bo'lgan, har jabhada mukammal, ijtimoiy davlat qurishga asoslangan, oddiy xalq vakillarining muammolarini yechishga qodir bo'la oladigan qonun tizimi bo'lmog'i zarur. Xuddi mana shunday yuqorida ta'kidlaganlarimizni umumlashtirgan holda, bugungi zamon ruhiga mos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining yangilangan tahriri o'zbek xalqi tomonidan referendumda tasdiqlandi. Yangilangan konstitutsiyamizda xalqimiz uchun bir qancha yengilliklar yaratildi. Inson qadr-qimmati yuqori o'ringa ko'tarildi. Shuningdek asrlar mobaynida sharaflı kasb hisoblanib kelgan - o'qituvchilarning huquqlari yangilangan qomusimizda belgilab qo'yildi. Yillar mobaynida majburiy mehnatga jalb qilingan, o'z kasbi bo'lmish barkamol avlodni yetishtirish qolib dalada paxta tergan o'qituvchilarning qadr - qimmati adolatli tarzda o'z o'rniga qo'yildi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yilning 14-dekabrida Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80. b.
3. Konstitutsiyaviy huquq [Matn]: daslik/ Mualliflar jamoasi. T.:TDYU nashriyoti, 2024.800 b.